

## **Ilm va e'tiqod**

**Ismoilova Zahro Abduraim qizi**  
JDPI "Musiqqa madaniyati" fakulteti Cholg'u  
ijrochiligi yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: Xolbekov M**  
Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasini o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Tarixdan ma'lumki ko'pchilik buyuk shaxslarning e'tiqodlari juda kuchli bo'lgan ayniqsa dinga, aslida e'tiqodsiz odam buyuk bo'lish uyoqda tursin biror ishni xam oxiriga yetkazishi mushkuldir. Alisher Navoiy xam asarlarini alloh nomi bilan boshlagan, Amir Temur din peshvolarini ardoqlagan, o'zi xam e'tiqod qilgan, Buxoriy, Termiziy, Nasafiylar esa ma'rifat va ilm yo'lida hayot kechirdi. Bir so'z bilan aytganda biz talabalar bugun dunyoviy ilmlar olish bilan birga diniy bilimlardan qanchalik xabardormiz? Maqolada shular haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Alloh; Taqdir; Duo; Tavassul; Payg'ambar; Mahfirat; Rohmansan; Rahimsan; Qahhorsan; Ahadsan; Somadsan; Hasan ibn ali, Xadis, E'tiqod, Ilm, Buxoriy, A.Navoiy

Bismillaxir rohmanir rohim - Yo Alloh. Tarixdan ma'lumki ko'pchilik buyuk shaxslarning e'tiqodlari juda kuchli bo'lgan ayniqsa dinga, aslida e'tiqodsiz odam buyuk bo'lish uyoqda tursin biror ishni xam oxiriga yetkazishi mushkuldir. Alisher Navoiy xam asarlarini alloh nomi bilan boshlagan, Amir Temur din peshvolarini ardoqlagan, o'zi xam e'tiqod qilgan, Buxoriy, Termiziy, Nasafiylar esa ma'rifat va ilm yo'lida hayot kechirdi. Bir so'z bilan aytganda biz talabalar bugun dunyoviy ilmlar olish bilan birga diniy bilimlardan qanchalik xabardormiz? Zero dinni bilmoq allohni tanimoq, bu xam ilm degani, bilimli inson xech qachon maxzun bo'lmaydi.

- Osmonlar va Yerdagi (barcha) jonzot (Unga muxtojdir va bor tilak maqsadlarini yolg'iz undan so'rar) U zot har kuni ish amaldadir. (Ar rohman 29-oyat).

Insonning boshiga nima ish tushsa ham Yo Alloh deydi. Allohni unutmaylik, Alloh har doyim biz bilan birga.

Bu dunyoda boshimizga qiyinchilik tushsa, og‘ir kunlar kelib, yaqinlarimiz bizga xiyonat qilsa, umuman olganda tashvishlar bilan o‘ralashib qolganimizda hammamiz Yo Alloh deya gap boshlaymiz. Aslini olganda faqat qiyinchilik vaqti emas, baxtli kunimizda ham Allohni eslab unga hamdlar aytishimiz kerak. Nega faqat boshimizga musibat tushganda noliymiz? Boshimizga tushgan musibatlarni Alloh bizga bir sinov tarzida beradi! Bu narsalar TAQDIR deyiladi. Alloh har birimizni taqdirimizni yozgan. Bizda shubhasiz taqdirni o‘zgartirish mumkinmi degan savol tug‘iladi. Bu savolga ko‘plar yo‘q Alloh yozganidan qochib qutila olmayсан degan javob beradi. Bir sir bor u esa DUO. Duo bilan inson xamma narsani opzgartira oladi. Hattoki taqdirni xam. Shuning uchun bu hayotda mahzum bo‘lmaslik kerak. Allohni qo‘yib turib foyda bermaydigan narsaga duo qilmaslik kerak. TAVASSUL bormi yo‘qmi? 3 ta narsani o‘rtaga qo‘yib so‘rash mumkin. Bizga buni Alloh o‘rgatdi.

1. Yo Alloh seni buyuk ismlaringni o‘rtaga qo‘yib so‘rayman. ROHMANSAN, ROHIMSAN, QAHHORSAN, AHADSAN, SOMADSAN, sen behojatsan deb Allohni buyuk ismlarini o‘rtaga qo‘yib so‘rash. Allohni go‘zal ismlarini o‘rtaga qo‘yib so‘rash eng oliy duolardan biri.

2. SOLIH qilgan amalimizni o‘rtaga qo‘yib so‘rashimiz kerak. Yo Alloh senga iymon keltirganman, Haq zotsan, yagonasan, albatta shifo seni qo‘lingda, qodir zotsan musibatimni ko‘tar deb so‘rang. PAYG‘AMBARingga ergashganman deb so‘rang. Biz senga iymon keltirganligimiz uchun do‘zaxingdan qutqar va yana boshqa narsalarni so‘rashlik.

3. Tirik insondan qodir bo‘lgan Solih odamdan duo qilishlikni so‘rashlik.

Shunday ekan hech qachon bu dunyoda mahzum bo‘lmaslik kerak. Qilgan gunohlarimiz uchun TAVBA qilib ALLOHDan MAHFIRAT so‘rab duo qilsangiz ALLOH kechiradi. Shu sabab hech qachon bu dunyoda mahzum bo‘lma. Inson

boshiga kichik katta musibat yetib mahzum bo'lgan vaqti shunday duo o'qish kerak. Alloh taola Baqara surasining 155-156-oyatlarida: "Biror musibat yetsa : "Albatta , biz Allohning (bandalarimiz) va albatta, biz u zotga qaytguvchilarmiz", deydigan sobirlarga xushxabar bering. Ana o'shalarga Parvardigorlari tomonidan salovat (mag'firat) va rahmat bordir. Ana o'shalar haq yo'lni topguvchilardir."deb aytgan.

Abu Hurayra (r.a) dan rivoyat qilinadi: Rosululloh Sollaallohu Alayhi Vassallam: "Har bir narsada istirjo (ya'ni, " INNA LILLAHI VA INNA ILAYHI ROJIUN", deb) ayting. Hattohi oyoq kiyimingizning ipi uzilganligi uchun ham. Chunki u ham musibatdir dedilar. IBN SUNNIY RIVOYATLARI.

Alloh bizni duolarimizni tavbalarimizni qabul qilishiga hech qachon shubxa qiasligimiz kerak. Zero HASAN INB ALI (r.a) dan rivoyat qilinadi. ROSULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAM: " Shubxali narsani shubxasiziga qo'y", dedilar. (Yani, shubxali narsani tark qilib, shubxasiz narsani ol). TERMIZIY va NASAFIY riboyatlari.

Bir so'z bilan aytganda, bu dunyoda mahzum bo'lma va duo tavba qilishdan to'xtama, duolaring ijobat bo'lmasligiga gumon yani shubxa qilma. ALLOHga ishonish kerak va hech qachon mahzum bo'lmaslik kerak. Allohning bergan nematlari haqida tafakkur qilaylik, u haqida so'zlaylik, Allohga shukur qilaylik, ayblar va nuqsonlarga ko'z yumaylik beshikdan to qabrgacha ilm o'rganaylik. Zero, bir soatlik olingan bilim, bir kunlik ibodatga teng!

### **Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati**

1. Quroni Karim kitobi;
2. Mahzum bo'lma-Doktor Oiz Al Qarniy;
3. Islom asosi hadislar-5-hadisi;